

PSIXOLOGIYA SOHASINING HOZIRGI DAVRDAGI AHAMIYATI

Saparbayeva Mohira Bektemirovna
Xiva tumani 37-son IDUM psixologi

Anotatsiya: Psixologiya fanning hozirgi kundagi o'rnini, insonlar hayotidagi ahamiyati, oldidagi muhim vazifalari.

Kalit so'zlar: Psixologiya, psixika, ong, bilish jarayonlari, harakter, temperament.

Psixika bu — yuksak taraqqiy etgan materiya, ya'ni miyaning xususiyati. Psixik hodisalar asosida, tashqi muhit ta'siri asosida yuz beruvchi miyaning reflektor faoliyati yotadi. Tashqi muhit ta'siri miyada o'zgarish, tormozlanish, nerv bog'lanishlarining hosil bo'lishi kabi asab jarayonlarini keltirib chiqaradi. Miyaning reflektor faoliyati organizmning tashqi ta'sirlarga nisbatan javob reaksiyasini ta'minlaydi. Teskari afferentatsiyaning mavjudligi hisobiga odam va hayvonlar o'z organizmining faoliyatini boshqarish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Insonning butun psixik faoliyati sababiy taqozolangan. U tashqi va ichki muhit ta'sirlari bilan hosil qilinadi. Insonning fikrlari va hissiyotlari, harakatlari va xulq-atvori uning hayot tarzi, yashash va tarbiyalanish muhiti xususiyatlari bilan belgilanadi. Xatti-harakatlarni tushunish uchun ularning motivlarini bilish kerak. Ularning sabablarini bilish uchun inson qanday muhitda tarbiya topgani, uni qanday insonlar qurshab turganini, bu insonning ular bilan qanday munosabatda ekanini bilish talab qilinadi. Barcha psixik hodisalar taraqqiy etib boruvchi birliklar sifatida quriladi. Mazkur tamoyil inson va hayvonlar psixikasining filogenezdagi rivojlanishi uchun ham, inson psixikasining ontogenezdagi taraqqiyoti uchun ham o'rinlidir. Taraqqiyot bu - sifat o'zgarishi, yangilikning paydo bo'lishidir. Aynan taraqqiyot davomida kuzatuvchanlik, yorqin xayol, chuqur fikrlash qobiliyati, murakkab va oliy insoniy hissiyotlar - vatanparvarlik, burch hissi, hamdardlik va boshqa insoniy fazilatlar, shaxs xususiyatlari tarkib topib boradi. Yangi xususiyatlar insonning amaliy faoliyati va boshqa insonlar bilan bo'lgan munosabat va muloqoti natijasida shakllanadi.

Inson tafakkuri uning faoliyatida shakllanadi va namoyon bo'adi. Inson narsa va hodisalami, ularning xususiyatlarini va ular o'rtasidagi munosabatlarni bu narsa va hodisalarga ta'sir ko'rsatibgina bilishi mumkin. Insonning narsa va hodisalaiga ta'siri esa faoliyat orqali amalga oshadi. Aynan faoliyat davomida inson boshqalarni va o'zini bilib boradi. Faoliyat xususiyatlari, uning amalga oshirish jarayoni shaxsning turli tomonlari rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi.

Har bir psixik hodisa bir butun, yaxlit xolda ko'rib chiqilishi kerak. Inson psixologiyasi yaxlit voqelikdir. Shaxs xususiyatlari, bilimlari, hayotiy tajribasi psixik

hodisalarga faqat o'ziga xoslik baxsh etadi. Temperament xususiyatlari ko'pgina psixik jarayonlarni o'ziga xos tarzda kechishiga sabab bo'adi. Faoliyat davomida shakllanib shaxs xususiyatlari psixik jarayonlarning kechishiga ta'sir ko'rsatadi, insonning xulq-atvori va xarakterini belgilab beradi. Inson shaxsining barcha tomonlari bir-biri bilan bogliq. Faoliyat motivatsiyasi shaxs yo'nalishiga bog'liq, diqqatning rivojlanishi xarakterda irodaviy sifatning shakllanishiga bog'liq va hakazo.

Nazariy psixologiya bilimlari amaliy pedagogik faoliyat bilan bog'lanishi kerak. Pedagogika oliy o'quv yurtida o'qitiladigan psixologiya kursining asosini umumiy psixologiya, yosh va pedagogik psixologiya tashkil etadi. Umumiy psixologiyada umumiy psixologik qonuniyatlar, psixologiyaning nazariy tamoyillari, asosiy kategoriyalari metodlari o'rgatiladi. Yosh psixologiyasida psixikaning ontogenezdagi rivojlanish qonuniyatlari yoritilsa, pedagogik psixologiya ta'lim-tarbiya jarayonlarining psixologik jihatlarini ochib beradi. Pedagogika oliy o'quv yurtida yoki o'rta maxsus bilim yurtida psixologiyani o'rgatishning o'ziga xosligi shundaki, bu yerda psixologiyani o'rganishning o'zi maqsad emas. Bo'lajak o'qituvchi va ta'biyachilarga psixologiyani o'qitishning asosiy maqsadi psixologik bilimlarni pedagogik faoliyatda qo'llashga o'rgatishdan iboratdir. Pedagogika o'quv yurtlaridagi psixologiya kurslari yuqorida sanab o'tilgan tamoyillar asosida tuzilsa, ular talabalar psixologik bilimlarining hayot va kasbiy faoliyatdagi ahamiyatini tushunishlari, shaxs sifatida shakllanishlarida muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi. Psixologiyani o'qitish samaradorligini oshirishning muhim sharti ta'limda ko'rgazmalilik tamoyiliga rioya qilishdir. Bu tamoyil o'qitish jarayonida ko'rish, eshitish, hid bilish, ta'm bilish, teri, muskul kabi sezgi a'zolarining bir ya'ni bilish ob'ekti ustida safarbar qilinishini talab etadi. Bilish jarayoni konkret narsa va hodisalarni sezish hamda idrok etishdan boshlanadi va umumlashtirish, mavxumlashtirish tomonga boradi. Sezgi va idrok voqelikni bilishning nisbatan sodda, bevosita jarayonlari bo'lib hisoblanadi. Ko'rgazmalilik tamoyili o'qitishda mazkur jarayonlarning imkoniyatlaridan kengroq foydalanishni nazarda tutadi. Psixologik bilimlarni egallab, talabalar ko'pincha nazariy bilimlar bilan konkret psixik hodisalar haqida ko'rgazmali tasavvurlarni bir-biriga boglashda qiynaladilar. Ko'rgazmalilikning turli usullaridan foydalanib, psixologiya o'qituvchisi talabalarga egallanayotgan psixologik bilimlarni konkret ko'rgazmali mazmun bilan boyitishda, odamlar faoliyati, xatti-harakatlarida muayyan psixologik qonuniyatlarni ko'ra olishga o'rganishda yordam beradi.

Maktab jarayonida ham psixologiya sohasining bir qancha vazifalari turibdi. Maktablarda tashkil etilgan psixologik xizmat ko'rsatish ishlari maktab psixologlari tomonidan olib boriladi. Maktab psixologining vazifalari, huquq va majburiyatlari Vazirlar Mahkamasining 577-sonli qarori bilan tasdiqlangan. Maktab jarayonida maktab psixologining muhim vazifalari quyidagilardan iborat:

- 1.O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish
- 2.O'quvchilarni va ularni ota-onalarini psixologik jixatdan o'rganish uchun test va so'rovnomalar olish va yordamga va korreksiyaga muhtoj o'quvchilar va ota- onalarga tegishli tavsiya , maslahatlar berishi , treninglar tashkil qilishi
- 3.Muommoli , tarbiyasi og'ir shuningdek tanglik holatidagi o'quvchilarni aniqlab vaqtida tegishli yordam berish me'yordan og'ish holatlarini oldini olish kabi bir qator vazifalari mavjud.

Shuningdek maktab psixologi barkamol avlod va yetuk shaxsni rivojlanib chiqishi uchun ota-ona va farzand, o'qituvchi va o'quvchi , o'qituvchi va pedogogik jamoa , ota-ona va maktab orasidagi psixologik muhitni yaxshilashdek samarali ishlarni amalga oshirib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umumiy psixologiya. T.: O'qituvchi, 1992. – 512 s.
2. Nemov R.S. Psixologiya Kn. M.: Prosveshenie – 1994. – 576 s.
3. G'oziev E. Psixologiya. T.: O'qituvchi, 1994 – 300 b.
4. Klimov E.A. Osnovi psixologii. Ucheb. M.: YuNITI, 1997. – 295 s.
5. Godfrua J. Chto takoe psixologiya. T. M.: Mir. 1992 – 496 s.
6. Karimova V.M. "Ijtimoiy psixologiya asoslari" T. 2004y.
7. G'oziev E. "Shaxs psixologiyasi" T. 2